

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc/03/29.12.2022/Ss/Tar.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

ABDURAZAKOVA KAMOLAXON YUSUPOVNA

**O‘ZBEKISTON – QOZOG‘ISTON DAVLATLARARO ALOQALARINING
MINTAQAVIY HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASHDAGI O‘RNI**

**23.00.04 – “Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy
muammolari”**

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по политическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor
of Philosophy (PhD) on Political Sciences**

Abdurazakova Kamolaxon Yusupovna

О‘zbekiston – Qozog‘iston davlatlararo aloqalarining mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashdagi o‘rni.....3

Абдуразакова Камолахон Юсуповна

Роль межгосударственных отношений между Узбекистаном и Казахстаном в укреплении регионального сотрудничества.....19

Abdurazakova Kamolaxon Yusupovna

The role of interstate relations between Uzbekistan and Kazakhstan on strengthening regional cooperation.....36

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works40

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc/03/29.12.2022/Ss/Tar.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

ABDURAZAKOVA KAMOLAXON YUSUPOVNA

**O‘ZBEKISTON – QOZOG‘ISTON DAVLATLARARO ALOQALARINING
MINTAQAVIY HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASHDAGI O‘RNI**

**23.00.04 – “Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy
muammolari”**

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ss364 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti veb-sayti <https://tsuos.uz> hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali www.ziynet.uz da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sirojov Oybek Ochilovich
siyosiy fanlar doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Ubaydullayeva Saodat Fatxullayevna
siyosiy fanlar doktori, dotsent
Xurramov Musurman Keldiyorovich
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/29.12.2022.Ss/Tar.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ kuni soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy, Tel: (71) 233-45-21, faks (998971)233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100047, Amir Temur ko‘chasi 20-uy, Tel: (998971) 233-45-21

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2023 - yil «___» _____ dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi).

B.D.Sayfullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori., professor

D.I.Madaminova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, siyosiy fanlar doktori, dotsent

E.S.Sultanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda insoniyat kelajagi uchun muhim bo'lgan, siyosiy tanglik, energiya resurslarining taqchilligi, oziq-ovqat yetishmasligi kabi global jarayonlar va muammolar chuqurlashib bormoqda. Globallashuv jarayonidagi o'zgarishlar shiddati davlatlararo aloqalarni mustahkamlashning optimal yo'nalishlarini izlab topishni va uni mamlakatlar taraqqiyotiga yo'naltirish masalalarini siyosiy jihatdan o'rganishni talab etmoqda. Hozirgi davrda dunyo maydonida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun unga bog'liq yetakchi davlatlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish serqirra va murakkab vazifa bo'lib, bu, o'z navbatida, hamkorlikning muhim sohasi bo'lmish davlatlararo aloqalarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish kabi masalalarda o'z yechimini kutayotgan ayrim muammolar mavjudligiga borib taqaladi.

Davlatlararo aloqalarni rivojlantirish, davlatlararo hamkorlik muammolarini o'rganish hamda hamkorlikni rivojlantirishning siyosiy-falsafiy muammolarini tadqiq etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan: Strategik va xalqaro tadqiqotlar markazi, Markaziy Osiyo ilmiy tadqiqotlar markazi (AQSH), Markaziy Osiyo instituti (Fransiya), Yevropa va Osiyo tadqiqotlari markazi, Yevropa siyosiy tadqiqotlar markazi (Yevropa Ittifoqi), Xalqaro siyosiy tadqiqotlar instituti (Yaponiya), Rossiya strategik tadqiqotlar instituti, global va mintaqaviy muammolarni o'rganish ilmiy-axborot markazi (Rossiya), Xitoy tadqiqotlar markazi (Xitoy), Qozog'iston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik tadqiqotlar instituti (Qozog'iston), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti va Markaziy Osiyo xalqaro institutida (O'zbekiston) olib borilmoqda.

Bugungi kunda mintaqadagi davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik an'analarini yo'lga qo'yishi tashqi siyosatimizning muhim yo'nalishi hisoblanadi, bu borada esa e'tiborga molik tajriba to'plandi. Jumladan, Qirg'iziston bilan keng qamrovli Strategik sheriklik to'g'risidagi deklaratsiya (2023), Turkmaniston bilan Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to'g'risidagi Shartnoma (2022), Tojikiston bilan Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi deklaratsiya (2024), Qozog'iston bilan ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi Shartnoma (2022) imzolandi. Mamlakatimizning bunday tashabbuslari mintaqada tinçlik va barqarorlikni ta'minlashda, ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda jadal keçhayotgan islohotlar sharoitida Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish vazifasi ilgari surilgan. Bu mintaqamizdagi hamkorlik jarayonlariga doir keng ko'lamli ilmiy-tadqiqotlarga zaruriyat mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqot ishi ham bugungi O'zbekiston jamiyatida keçhayotgan jadal islohotlar jarayonida mintaqadagi davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik an'analarini yo'lga qo'yish, O'zbekiston va Qozog'iston davlatlararo aloqalarini mustahkamlash va hamkorlikni

rivojlantirishning strategik siyosiy jihatlarini tadqiq etish dolzarbligidan kelib chiqadi. Qolaversa, 2022-yil 22-dekabrda imzolangan O‘zbekiston – Qozog‘iston o‘rtasida Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.«Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston va Qozog‘iston davlatlararo aloqalari va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash borasidagi masalalar, avvalo, O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari¹, mamlakatimiz hayotining yangi bosqichini boshlab bergan davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekistonni barqaror va izchil rivojlantirishga oid konseptual g‘oyalari² hamda ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik doirasidagi shartnomalar, memorandumlar, yo‘l xaritalari muhim asos hisoblanadi. Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik O‘zbekiston – Qozog‘iston ikki tomonlama aloqalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Birinchi guruhga mintaqa geosiyosati, xavfsizligi, mintaqadagi hamkorlik jarayonlari muammolarining turli ko‘rinishlarini tadqiq va tahlil qilgan o‘zbekistonlik olimlar S.Safoyev, R.Alimov, Sh.Arifxanov, I.Boyoqulov, Sh.Arifxanov, F.Tolipov, S.Jo‘rayev, Ch.Kucharov, N.Nazarov, U.Hasanov, O.Sirojov, S. Saidolimov, F.Karimov, S. Bo‘ronov, M. Nazirov, M.Xurramovlarni kiritish mumkin³.

Ikkinchi guruhga Markaziy Osiyo mintaqasi olimlari, jumladan, qozog‘istonlik olimlardan S.Kushkumbayev, Ye.Seylexanov, I.A. Kaliyev, M.T. Laumulin, A.Orsariyev qirg‘izistonlik olimlardan M.Suyunbayev va D.Uzbekov, tojikistonlik olimlardan M.Olimov, S.Olimova, G.Maytdinovani kiritish mumkin⁴. Xususan, S.Kushkumbayev o‘zining “Центральная Азия на путях интеграции: геополитика, этничность, безопасность” deb nomlangan ilmiy ishida Markaziy Osiyo mintaqasida integratsion jarayonlarni rivojlantirishda mintaqa davlatlari, jumladan, Qozog‘iston va O‘zbekistonning tutgan o‘rni, mintaqada integratsion jarayonlar rivojlanishida tashqi kuchlar ta’sirini o‘rgangan⁵. Shuningdek, M.Suyunbayev va D.Uzbekovning “Геополитические особенности Центральной

¹ I.Karimov., Tanlangan asarlar to‘plami. Tom 1-24. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993-2016.

² Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. Ўша муаллиф. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. O‘sha muallif. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. O‘sha muallif. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

³ Ushbu muallifning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatiga kiritilgan.

⁴ Ushbu muallifning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatiga kiritilgan.

⁵ Центральная Азия на путях интеграции : геополитика, этничность, безопасность // Central Asia on the way to integration: geopolitics, ethnicity and security.// С.К.Кушкумбаев; Институт востоковедения имени Р.Сулейменова., Министерства образования и науки Республики Казахстан

Евразии” deb nomlangan monografiyalarida Markaziy Osiyo davlatlarining olib borayotgan tashqi siyosati, mintaqada hamkorlik jarayonlarini rivojlantirish bo‘yicha tashqi siyosiy faoliyati, pozitsiyalari tahlil qilingan⁶.

Uchinchi guruhga Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlari bo‘lmish A.Kazansev, A.Kortunov, P.Sigankov, Y.Savichov, V.Alchinov, A.Blinov, L.Voronkov, M.Pikulina, A.Knyazevlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar xalqaro xavfsizlik va xalqaro munosabatlar, ijtimoiy siyosat, O‘zbekistonning tashqi siyosati va diplomatiyasini o‘rganishda xizmat qilsa, G‘arb nazariyotchilari G.Kissenger, Z.Bjezinskiy, S.Xantington, M.Olkott, X.Malik, A.Abidi, I.Kolak, F.Starr va Sh.Akiner kabi olimlarning mintaqadagi siyosiy-iqtisodiy jarayonlar, xalqaro munosabatlar tarixi va mintaqaviy hamkorlik masalalari xususidagi ilmiy mulohazalari alohida ahamiyatga molikdir⁷.

Yuqorida keltirib o‘tilgan olimlarning ishlarida Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikka bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, aynan O‘zbekiston va Qozog‘iston hamkorligi bo‘yicha siyosiy fanlar nuqtai nazaridan mukammal tadqiqotlar mavjud emas. Shu jihatdan, O‘zbekiston va Qozog‘iston davlatlararo aloqalarida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga doir muhim siyosiy jihatlar bilan bog‘liq tadqiqotlarni olib borishda mazkur dissertatsiya muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlarining “O‘zbekiston va Qozog‘iston davlatlararo aloqalarining mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashdagi o‘rni” mavzusidagi ilmiy tadqiqoti doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston va Qozog‘iston mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashdagi o‘rnining siyosiy xususiyatlarini ochib berish va mintaqaviy taraqqiyotni ta‘minlashga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardir:

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi ko‘p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishning siyosiy-nazariy jihatlarini yoritib berish;

O‘zbekiston – Qozog‘iston o‘rtasidagi har tomonlama aloqalarni mustahkamlash tajribasini o‘rganish;

O‘zbekiston – Qozog‘iston davlatlararo hamkorlikning rivojlanish dinamikasini tahlil qilish;

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi davlatlararo aloqalarning mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish;

O‘zbekiston – Qozog‘iston o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish orqali mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida mintaqaviy hamkorlik jarayonida O‘zbekiston va Qozog‘iston davlatlararo aloqalarining ijtimoiy-siyosiy jihatlarini tanlangan.

⁶ Центральная Азия на путях интеграции : геополитика, этничность, безопасность // Central Asia on the way to integration: geopolitics, ethnicity and security.// С.К.Кушкумбаев; Институт востоковедения имени Р.Сулейменова., Министерства образования и науки Республики Казахстан

⁷ Суюнбаев М., Узбеков Д. Геополитические особенности Центральной Евразии – Б.: 2018-300.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi davlatlararo aloqalarni rivojlantirishga doir konseptual yo‘nalishlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz, sintez, umumlashtirish, obyektivlik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, prognozlash, SWOT tahlil, deduksiya va induksiya, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

“davlatlararo aloqalar”, “xalqaro munosabatlar ta’siridagi o‘zgarish”, “davlatlararo aloqalar transformatsiyasi”, “mintaqaviy hamkorlik” tushunchalarining tashabbus va loyihalar integratsiyasiga asoslangan mazmuni ochib berilgan;

O‘zbekiston – Qozog‘iston hamkorligining ustuvor yo‘nalishi bo‘lgan davlatlararo transport kommunikatsiya tizimini yangi bosqichga ko‘tarishning diplomatik immunitet, xalqaro huquq bilan bog‘liq siyosiy yechimlari ishsizlik va migratsiya muammolariga inson manfaatlarini hisobga olgan holda birgalikda chora-tadbirlar ko‘rish ochib berilgan;

hududlararo aloqalar rivojida chegaradosh hududlarning davlatlararo funksional va institutsional kelishuvlarga erishishdagi imkoniyatlaridan foydalanishning o‘zbek-qozoq yoshlarining do‘stlik forumini tashkil etish kabi vositalari ilmiy jihatdan asoslangan;

mintaqaviy hamkorlikda O‘zbekiston – Qozog‘iston davlatlararo aloqalarini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy imkoniyatlari sifatida ziyolilar dekadalarini tashkil etish, xalq diplomatiyasi, chegara hududlarda sohalar kesimida forumlar tashkil etishdan samarali foydalanish dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston – Qozog‘iston davlatlararo aloqalarini rivojlantirishning mexanizmlari ishlab chiqilgan holda ikki davlat o‘rtasidagi yaqin tarixiy va do‘stona munosabatlarni, ishonch va yaxshi qo‘shnichilikni targ‘ib qilishga, o‘zaro hamkorlik mintaqadagi barcha xalqlar va mamlakatlar ijtimoiy-siyosiy manfaatlariga bog‘liq ekanligi isbotlab berilgan;

O‘zbekiston va Qozog‘iston davlatlararo aloqalarini rivojlantirish asosida mintaqaviy hamkorlikni takomillashtirish, davlat va jamoat tashkilotlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini kengaytirish hamda yanada rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi xalqaro hamkorlik aloqalarining o‘rnatilishi mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlanishiga olib kelishi nazariy jihatdan o‘rganilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy tahlilning umumiy va maxsus usullari keng qo‘llanilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishidan O‘zbekiston tashqi siyosiy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlashga doir davlat strategiyasini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishda ilmiy-nazariy asos sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishi natijalaridan davlatlararo aloqalarning ustuvor yoʻnalishlarini belgilashda, Oʻzbekiston Respublikasining mintaqaviy siyosatini takomillashtirish, Qozogʻiston Respublikasi bilan ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish boʻyicha “yoʻl xaritalari”ni tuzishda hamda Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oʻzbekiston – Qozogʻiston davlatlararo aloqalarining mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashdagi oʻrni mavzusida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan amaliy takliflar asosida quyidagilarga erishildi:

Tadqiqot ishi natijalaridan, xususan, ilmiy asoslangan xulosalar, nazariy taʼlimotlar va tavsiyalardan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutining axborot-tahliliy va ilmiy-tadqiqot faoliyatining asosiy yoʻnalishlari (Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik masalalari, ikki mamlakat oʻrtasidagi munosabatlarning tarixi, hozirgi holati hamda istiqbollari) doirasidagi ilmiy yangiliklar va takliflar, SMTI faoliyati doirasidagi axborot-tahliliy maʼlumotlarni tayyorlash, Oʻzbekiston – Qozogʻiston hamda mintaqaviy hamkorlikni yanada kuchaytirish masalalari yuzasidan tahlil qilish, manfaatli hamkorlikni rivojlantirish boʻyicha tahliliy hujjatlar va forumlarda qoʻllanildi. (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutining 14-mart 2022-yildagi 03-1/184-sonli maʼlumotnomasi). Natijada Oʻzbekiston – Qozogʻiston davlatlararo aloqalarining mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga doir tahliliy materiallarning takomillashuviga qaratilgan ijobiy tendensiya kuzatildi.

Oʻzbekiston – Qozogʻiston davlatlararo aloqalarining mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi ijtimoiy-siyosiy imkoniyatlari sifatida ziyolilar dekadalarini tashkil etish, xalq diplomatiyasi, chegara hududlarda sohalar kesimida forumlar tashkil etishdan samarali foydalanishga oid xulosalardan Markaziy Osiyo xalqaro instituti tahliliy hujjatlarini tayyorlashda foydalanilgan. (Markaziy Osiyo xalqaro institutining 2022-yil 2-fevraldagi 03/03-2-68-sonli maʼlumotnomasi). Natijada institut tomonidan davlat va boshqa idoralar uchun Oʻzbekiston va Qozogʻiston oʻrtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish bilan bogʻliq tavsiyalarning takomillashuviga xizmat qilgan.

Oʻzbekiston – Qozogʻiston hamkorligining ustuvor asoslari boʻlgan davlatlararo transport kommunikatsiya tizimini yangi bosqichga koʻtarishning siyosiy yechimlari, mintaqaviy xavfsizlikni taʼminlash, ishsizlik va migratsiya muammolariga inson manfaatlarini hisobga olgan holda birgalikda chora tadbirlar koʻrish bilan bogʻliq takliflar Xalqaro munosabatlar boʻyicha axborot-tahliliy markazi tomonidan foydalanilgan. (Xalqaro munosabatlar boʻyicha axborot-tahliliy markazining 2024-yil 16-iyuldagi 01/07-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, bu takliflar Markazning 2022—2024-yillarga moʻljallangan ish rejasining amaliy jihatini oshirgan.

Oʻzbekiston – Qozogʻiston davlatlararo aloqalarining mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi oʻziga xos imkoniyatlar, chegara hududlarda milliy bayramlarni birgalikda nishonlash, sohalar kesimida forumlar tashkil etish, ijodkorlar

dekadalarini tashkil etishdan samarali foydalanish borasida davlatlararo aloqalarni yanada mustahkamlashga doir hamda O‘zbekiston va Qozog‘iston hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari, davlatlararo transport kommunikatsiya tizimini rivojlantirish, mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash, ishsizlik va migratsiya muammolarini hal etishda birgalikda chora tadbirlar ko‘rish doirasidagi keltirilgan ilmiy xulosalar va ma‘lumotlardan O‘zbekistonning Qozog‘istondagi Elchixonasining ma‘rifiy va madaniy faoliyatida foydalanildi. (O‘zbekiston Respublikasining Qozog‘iston Respublikasidagi Elchixonasining 2024-yil 30-yanvardagi №014/5-1783-sonli dalolatnomasi). Natijada, ilgari surilgan taklif va tavsiyalar davlatlararo munosabatlarning hozirgi holatini tahlil qilish va O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash yo‘nalishida Elchixonaning faoliyati samaradorligining oshishiga xizmat qildi.

“Davlatlararo aloqalar”, “xalqaro munosabatlar ta‘siridagi o‘zgarish”, “davlatlararo aloqalar transformatsiyasi”, “mintaqaviy hamkorlik” tushunchalarining tashabbus hamda loyihalarga asoslangan zamonaviy mazmuni ochib berilib, davlatlararo aloqalar, mintaqaviy hamkorlik paradigmalarning siyosiy-kommunikativ xarakteriga doir ilmiy asoslangan tavsiyalari O‘zbekiston Respublikasining Qirg‘iziston Respublikasidagi Elchixonasining 2022—2024-yillarga mo‘ljallangan ish rejasi yuzasidan olib boriladigan faoliyat doirasidagi targ‘ibot tadbirlarini tizimli yo‘lga qo‘yishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasining Qirg‘iziston Respublikasidagi Elchixonasining 2022-yil 14-yanvardagi 018/063-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada Elchixona targ‘ibot tadbirlar rejasining takomillashuviga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta konferensiyalarda, shu jumladan, 2 ta xalqaro konferensiya hamda 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasining Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, respublika jurnallarida 3 ta maqola, xorijiy jurnallarda 6 ta maqola e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari bilan oʻzaro aloqadorligi koʻrsatilgan, tadqiq etilayotgan muammoning oʻrganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi aniqlangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, ilmiy tadqiqot usullari koʻrsatib oʻtilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlarga doir maʼlumotlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Davlatlararo aloqalar va mintaqaviy hamkorlikni oʻrganishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan. Ushbu bobda davlatlararo aloqalar tushunchasi, mohiyati va mazmuni, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish modellari, Oʻzbekiston va Qozogʻiston Respublikasi oʻrtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda davlatlararo aloqalarni oʻrganishda uning nazariy asoslarini tadqiq etish muhim hisoblanadi. Shunday ekan, davlatlararo aloqalar bugungi oʻzgarib borayotgan hamkorlik dinamikasi bilan bogʻliq.

Koʻpgina tadqiqotchilarning fikricha, davlatlararo aloqalar, davlatlar tizimlari, shuningdek, xalqaro maydonda faoliyat koʻrsatayotgan turli davlat va jamoat institutlari oʻrtasidagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, diplomatik, harbiy va boshqa sohalaridagi munosabatlar majmui boʻlgan xalqaro munosabatlarning asosiy elementi sifatida qaraladi⁸.

Oʻzbekiston qoʻshni Qozogʻiston bilan ham oʻzaro manfaatli, ochiq, samarali hamda ahil qoʻshnichilik siyosatini davom ettirishni oʻz tashqi siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaraydi. Oʻzbekiston *winner takes all*⁹ strategiyasini tashqi siyosatning instrumenti sifatida foydalanishni samarasiz va zamon haqiqatlariga toʻgʻri kelmaydi deb hisoblaydi.

Shuningdek, ushbu bobda Oʻzbekiston va Qozogʻiston Respublikalari tashqi siyosat konsepsiyalari ustuvorliklari koʻrsatilgan. Aynan qoʻshni mamlakatlar bilan aloqalarni yanada mustahkamlash, ikki davlat oʻrtasidagi koʻp qirrali munosabatlarni amalda jadal rivojlantirishda tashqi siyosat konsepsiyalarining oʻrni katta ekanligi keltirilgan. Qolaversa, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish modellari mavjud mintaqaviy institutlar faoliyati kesimida tahlil qilingan. Jumladan, mintaqada hamkorlik tajribasini koʻrib chiqish maqsadida Markaziy Osiyo

⁸ Л.Воронков “Международные организации и современные международные отношения” <https://interaffairs.ru/jauthor/material/951>

⁹ Yutgan tomon hammasini oladi, yaʼni bir tomon yutadi, ikkinchi tomon yutqazadi.

Hamkorlik Tashkiloti ¹⁰, Markaziy Osiyo Davlat Rahbarlari Maslahat Uchrashuvining SWOT tahlillari ko‘rib chiqilgan¹¹.

1-jadval.

Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti (MOHT) SWOT tahlili

Kuchli tomonlari (Strengths)	Kuchsiz tomonlari (Weakness)
–Mintaqaning aksariyat davlatlarini qamrab olganligi; –Madaniy-tarixiy birlikka ustivorlik berilgani; –O‘zbekiston, Qozog‘iston tashabuskor bo‘lganligi; –Sobiq Sovet Ittifoqi davridan qolgan mintaqaviy infratuzilma va tartibotlardan; samarali foydalanganlik; Tojikiston va Afg‘onistondagi beqarorlikni butun mintaqaga tarqalib ketishiga yo‘l qo‘yilmaganligi.	–Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun texnologiya va moliyaviy manbalarga ega bo‘lmaganlik; –Yagona mintaqaviy strategiya ishlab chiqilmaganligi.
Imkoniyatlari (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)

¹⁰ Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti (MOHT) 2002-yilda tashkil etilgan xalqaro tashkilot bo‘lib, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy, va ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashni maqsad qilgan. MOHTning asosiy maqsadi mintaqada barqarorlikni ta‘minlash, xavfsizlikni mustahkamlash va turli sohalarda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishdir. MOHT 2005-yilda Rossiya Federatsiyasining tashkilotga qo‘shilishi bilan kengayib, yangi bosqichga o‘tgan. Shu bilan birga, tashkilotning maqsad va vazifalari yanada kengaygan va uni mintaqaviy xavfsizlik hamda barqarorlikni ta‘minlashda muhim o‘rin egallashiga olib kelgan. 2006-yilda esa MOHT Yevrosiyo Iqtisodiy Hamjamiyatiga (YeOIH) qo‘shildi va uning faoliyatini davom ettirish to‘xtatildi. Tashkilotning vakolatlari YeOIHga o‘tkazildi.

¹¹ SWOT tahlili strategik rejalashtirish usuli bo‘lib, u tashkilotning ichki va tashqi muhiti omillarini aniqlash va ularni to‘rt toifaga bo‘lishdan iborat: S- kuchli (kuchli tomonlari), W- kuchsiz (zaif tomonlari), O- imkoniyatlari, T- tahdidlar (tahdidlar). Kuchli (S) va kuchsiz (W) tomonlar tahlil qilinayotgan obyektning ichki muhitining omillari, (ya‘ni obyektning o‘zi nimaga ta‘sir qilishi mumkin); Imkoniyatlar (O) va tahdidlar (T) atrof-muhit omillari (ya‘ni, obyektga tashqaridan ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan va obyekt tomonidan boshqarilmaydiganlar). Masalan, korxonaga o‘zining savdo assortimentini boshqaradi - bu ichki muhit omili, ammo savdo qonunlari korxonaga tomonidan nazorat qilinmaydi - bu tashqi muhit omili. SWOT tahlilining obyektiga nafaqat tashkilot, balki boshqa ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar ham bo‘lishi mumkin: iqtisodiyot tarmoqlari, shaharlar, davlat muassasalari, ilmiy sohalar, siyosiy partiyalar, notijorat tashkilotlar (NPO), alohida mutaxassislar, shaxslar., va boshqalar. [Elektron manba]: <https://elibrary.ru/item.asp?id=18983563>

<p>–Mintaqa davlatlarining iqtisodiy rivojlanishd umumiy o‘shish tendensiyasiga ega ekanligi hamda o‘zaro hamkorlik rivojidan manfaatdor ekanligi;</p> <p>–Mintaqaviy hamkorlikning jadallashuvi mintaqa davlatlarining iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy tasir qildi;</p> <p>–A’zo davlatlar eksport geografiyasi kengayishiga olib keladi.</p>	<p>–Tashqi kuchlar ta’siri;</p> <p>–A’zo davlatlar o‘rtasida mintaqaviy yetakchilik uchun kurash boshlanib ketishi;</p> <p>–Kelishuvlar deklarativligining oshib borishi.</p>
--	---

2-jadval.

Markaziy Osiyo Davlat Rahbarlari Maslahat Uchrashuvining SWOT tahlili

Kuchli tomonlari (Strengths)	Kuchsiz tomonlari (Weakness)
<p>–5 ta Markaziy Osiyo davlatlarini qamrab olganligi;</p> <p>–A’zo davlatlar uchun majburiyatlarga emas maslahatlashuvga ustuvorlik berilishi;</p> <p>–Muzokaralarning norasmiy tashkil etilishi;</p> <p>Muammolarni shartlarsiz muhokama qilish imkoniyati.</p>	<p>–Hamkorlik platformasining institutsionallashtirmaganligi;</p> <p>–Tashkilotning istiqboli bilan bog‘liq strategiyaning yo‘qligi;</p> <p>Mintaqa davlatlarining iqtisodiy rivojlanishida o‘zaro bir-birini to‘ldirish imkoniyati kamligi.</p>
Imkoniyatlari (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
<p>–Mintaqaviy rivojlanishni muhokama qilish hamda rivojlantirish uchun umumiy strategiya bilan birgalikda harakat qilish;</p> <p>–Mavjud muammolarni hal qilishda yangicha yondashuvlarni tatbiq qilishga ustuvorlik;</p> <p>–Mintaqa davlatlari o‘rtasida iqtisodiy-ijtimoiy hamkorlikni yangi darajaga olib chiqish.</p>	<p>–Global tartibotlarning transformatsiyasi;</p> <p>–Mintaqa davlatlari tashqi siyosatida keskin o‘zgarishlar ehtimoli;</p> <p>–Avtoritarizmning kuchayib borayotganligi.</p>

Yuqorida keltirilgan mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish modellarining SWOT tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun aynan bir model asosida rivojlantirish bir qator muammolar vujudga kelishiga olib keladi. Shu sababli o‘rganilgan barcha mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish modellarini tahlil qilib, tarixiy tajribadan kelib chiqish muhimdir.

Shu bilan birga, ushbu bobda O‘zbekiston va Qozog‘iston tashqi siyosiy konsepsiyalarini mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish tamoyili orqali qiyosiy tahlil

qilinib, ikki davlat tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasining ahamiyatini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin:

3-jadval.

Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyalari qiyosiy tahlili.

O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi	Qozog‘iston tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi
Markaziy Osiyo mintaqasi tashqi siyosatda ustuvor yo‘nalishi;	Ustuvor mintaqalar pog‘onasida Markaziy Osiyo uchinchi o‘rindan joy olgan. Rossiya Federatsiyasi va Xitoy Xalq Respublikalari ro‘yxatning birinchi hamda ikkinchi pog‘onalarini band etishgan;
O‘zbekiston o‘zining yaqin qo‘shnilari bilan munosabatlarda doimo ochiq, do‘stona va pragmatik siyosat yuritish tarafdori bo‘lib qolishi;	Qozog‘iston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari – Qirg‘iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston va O‘zbekiston Respublikasi bilan ko‘p qirrali aloqalarini rivojlantirishda asosiy e‘tibor mintaqada davlatlarining ichki va tashqi chaqiruv va tahdidlarga birgalikda qarshi kurashish, o‘zaro manfaatli va tenglik asosida siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni faollashtirish bo‘yicha sa’y-harakatlarini birlashtirishga qaratiladi;
mintaqadagi barcha dolzarb siyosiy, iqtisodiy va ekologik muammolar o‘zaro manfaatlarni hisobga olgan holda, amaliy muloqot va xalqaro huquq normalari asosida hal etilishini yoqlashi;	Markaziy Osiyo Qozog‘iston tashqi siyosatida uchinchi ahamiyatli mintaqada sifatida ko‘rilsa ham, qo‘shni mamlakatlar bilan ko‘p vektorli aloqalarni jadallashtirishdan manfaatdor ekanligi;
Markaziy Osiyoning muammolari tashqi kuchlarning aralashuvisiz mintaqadagi davlatlarning o‘zlari tomonidan yechilmog‘i zarurligi;	Qozog‘iston iqtisodiy rivojlanishida Rossiya Federatsiyasi va Xitoy Xalq Respublikasi omillarining ta’siri ortib borishi hamda mamlakatga kiritilgan asosiy investitsiyalar XXR va Rossiya Federatsiyasiga tegishli ekanligi;
har doim qo‘shni mamlakatlar bilan konstruktiv va pragmatik muloqotlarni jadal rivojlantirish tarafdori bo‘lib qolishi.	Mintaqada davlatlari bilan aloqalarda mushtarak sa’y-harakatlarni umumlashtirish tarafdori bo‘lib qolishi.

Mintaqaviy hamkorlik murakkab tarixiy jarayon hisoblanib unda tashabuskorlik, og‘irlikni zimmasiga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ishining **“O‘zbekiston va Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari”** nomli ikkinchi bobida O‘zbekiston – Qozog‘iston davlatlararo munosabatlarning ustuvor yo‘nalishlari, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorligi, davlatlararo munosabatlarning takomillashuvida O‘zbekiston tashabbuslari kabi masalalar yoritilgan.

Mazkur bobda ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikning o‘sishi hamda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda har ikki mamlakat tomonidan ko‘tarilgan tashabbuslar hisobga olingan holda davriylashtirildi.

Birinchi bosqich 1992-yildan 1998-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichning asosiy hujjati 1992-yil 24-iyunda Turkiston shahrida imzolangan “Do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi shartnoma” hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich 1998-yildan 2013-yilgacha bo‘lgan muddatni qamrab oladi. Ikkinchi bosqichning tayanch hujjati 1998-yil 31-oktyabrda Toshkent shahrida imzo chekilgan “Abadiy do‘stlik to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi shartnoma” e‘tirof etiladi.

Uchinchi bosqich 2013-yildan 2017-yilga qadar bo‘lgan vaqtni o‘zida mujassamlashtiradi. Bu davrning asosiy hujjati 2013-yil 14-iyunda Toshkent shahrida imzolangan “Strategik sheriklik to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi shartnoma” sanaladi¹².

To‘rtinchi bosqich sifatida 2017-yildan hozirgi kunga qadar Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanganidan so‘ng ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar yanada yangi darajaga ko‘tarildi. 2021-yil 6-dekabrda imzolangan “O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi deklaratsiya”si, 2022-yil 22-dekabrda imzolangan “O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risida” shartnomalar ikki tomonlama aloqalarni yangi bosqichga chiqishida huquqiy asos bo‘ldi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi bevosita ikki tomonlama aloqalar quyidagi yo‘nalishlarni ko‘zda tutadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va yagona iqtisodiy makonni shakllantirish;
- har tomonlama hamkorlik va abadiy do‘stlikni mustahkamlab borish¹³;
- tashqi mehnat resurslari oqimini mamlakatlararo masshtabda tashkil etish;
- etnik birliklar manfaatlarini himoyalash¹⁴;
- transport-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish va transkontinental transport yo‘laklaridan hamkorlikda foydalanish;

¹² O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti: “Сотрудничество Узбекистана со странами Центральной Азии” [Elektron manba]: <https://mfa.uz/ru/pages/Central-asia>.

¹³ Ma‘lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda O‘zbekiston aholisining 2,4 foizini etnik qozoqlar tashkil etadi. [elektron manba]: UNECE “Национальный обзор жилищного хозяйства и землепользования” https://unece.org/DAM/hlm/documents/Publications/CP_Uzbekistan_withCorr.RU.pdf 12-бет).

¹⁴ Bu borada, 1992-yilning 24-iyunida “O‘zbekiston Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risida”gi Shartnoma, 1998-yilning 31-oktabrida “Qozog‘iston Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida abadiy do‘stlik to‘g‘risida”gi Shartnomalarni keltirib o‘tish mumkin.

– O‘zbekiston va Qozog‘istonning tabiiy resurslar, ayniqsa, yoqilg‘i energetik resurslar o‘ta boy zahirasiga ega ekanligidan kelib chiqqan holda, yerosti foydali qazilmalarini birgalikda o‘zlashtirish;

– harbiy-texnik va mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi hamkorlik; Qozog‘iston va O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida mudofaa salohiyati yuqori hisoblangan mamlakatlardir.

O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar doirasida Qozog‘istonni qo‘llab-quvvatlash Shanxay hamkorlik tashkiloti, EXPO-2017 sammitida, Ostonada Islom hamkorlik Tashkilotining birinchi sammiti, 2018-yilning yanvar oyida BMT xavfsizlik Kengashida Qozog‘istonni saylanishida namoyon bo‘ldi. Qozog‘iston va O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlarini ishonchni mustahkamlash, manfaatlarni o‘zaro hisobga olish, samarali energiya va suvni tejashni ta‘minlash, o‘zaro ta‘sir shakllari hamda mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan umumiy yondashuvlar, yangi g‘oyalar va tashabbuslarni topishga chaqirmoqda¹⁵.

Shuningdek, ushbu bobda ikki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik va yagona iqtisodiy makonni shakllantirish masalasiga ham to‘xtalib o‘tiladi. Bugungi kunda O‘zbekiston va Qozog‘iston savdo-iqtisodiy aloqalar hajmi bo‘yicha MDH tuzilmasida Rossiyadan keyingi 2-o‘rinni, Markaziy Osiyo mintaqasida 1-o‘rinni egallaydi. 2022-yil yakunlariga ko‘ra Qozog‘istonning O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi eksporti ulushi 9,2 foizni tashkil etib, Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasidan keyin uchinchi o‘rinni egallaydi¹⁶.

Tadqiqot ishining “O‘zbekiston – Qozog‘iston davlatlararo aloqalarining istiqbollari” deb atalgan uchinchi bobida O‘zbekiston – Qozog‘iston hamkorligini mustahkamlash asoslari va uni amalga oshirish mexanizmlari, ijtimoiy-siyosiy sohalarda hamkorlik istiqbollari kabi masalalar tadqiq etilgan.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida davlatlararo aloqalarni rivojlantirishning quyidagi siyosiy institutlar Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat kengashi; davlat rahbarlari boshchiligidagi Davlatlararo kengash (Ittifoqchilik to‘g‘risidagi shartnoma imzolanganligi munosabati bilan¹⁷);

O‘zbekiston va Qozog‘iston davlatlari parlamentlararo hamkorlik kengashi; O‘zbekiston va Qozog‘iston davlatlari Bosh vazirlari rahbarligida o‘tkaziladigan Hukumatlar iqtisodiy-texnik hamkorlik bo‘yicha qo‘mita yig‘ilishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida parlamentlararo kengashining tashkil etilishi savdo-iqtisodiy, madaniy gumanitar va boshqa sohalarda parlamentlararo hamkorlik samaradorligini oshirishga xizmat qilishi nazariy jihatdan asoslab berilgan. Kengash ikki davlat rahbarlari kelishuviga asosan tashkil etilgan bo‘lib, qo‘shni davlatlar parlamentlari o‘rtasida qonunchilik doirasida o‘zaro hamkorlik qilish maqsadida yo‘lga qo‘yilgan.

¹⁴ Muratbekova A. Recent changes in the Kazakh Uzbek relations: interview with Erkin Baydarov. [Электрон манба]: https://www.cife.eu/Ressources/FCK/EUCACIS%20in%20Brief%206_Muratbekova.pdf.

¹⁶ FOREIGN TRADE TURNOVER OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. [Elektron manba]: https://stat.uz/uploads/docs/tashqi_savdo_en_yanvar.pdf 14.06.2021.

¹⁷ O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi ittifoqchilik munosabatlari mustahkamlanmoqda. [Elektron manba]: <https://president.uz/uz/lists/view/5782>

Mintaqada tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi hamda ichki xatarlarning yoyilishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularning oldini olish uchun O‘zbekiston, Qozog‘iston davlatlarining sa’y-harakatlari, salohiyat va imkoniyatlarini muvofiqlashtirish hamda birlashtirish, o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

O‘zbekiston – Qozog‘iston davlatlararo aloqalarining mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashdagi o‘rni bilan bog‘liq masalalarning siyosiy tahlili quyidagi xulosalarni bayon qilish imkonini beradi:

1. O‘zbekiston va Qozog‘iston geografik joylashuvi, geosiyosiy salohiyati, aholisi, o‘zaro yaqin etnomadaniyati, an’ana va urf-odatlariga ko‘ra Markaziy Osiyoda integratsion jarayonlar, xavfsizlik va manfaatli hamkorlik, barqaror rivojlanishning ikki muhim aktorlaridir. Bugungi kunda ayrim muammolardan tashqari O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Davlat rahbarlari har ikki tomon uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy integratsiya va mintaqaviy xavfsizlik masalalari bo‘yicha aniq kelishuvga ega.

2. Ikki davlat o‘rtasida hamkorlikning rivojlanishi mintaqaviy hamkorlik mustahkamlanishiga olib keladi. Bunda ikki tomonlama aloqalarni muntazam rivojlantirib borish bilan bir qatorda, Markaziy Osiyo mintaqasi hamda MDH miqyosida olib borilayotgan o‘zaro hamkorlik aloqalari ham strategik ahamiyat kasb etadi.

3. O‘zbekiston va Qozog‘iston munosabatlarining zamonaviy davrini to‘rt bosqichga bo‘lib o‘rganish muhim, jumladan: birinchi bosqich 1992-yildan 1998-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi; ikkinchi bosqich 1998-yildan 2013-yilgacha bo‘lgan muddatni qamrab oladi; uchinchi bosqich 2013-yildan 2016-yilga qadar bo‘lgan vaqtni o‘zida mujassamlashtiradi; to‘rtinchi bosqich 2017-yildan hozirgi kunga qadar davrni o‘z ichiga oladi.

4. O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar istiqbollari tahlilida Markaziy Osiyo mintaqasi atrofidagi ikki yirik davlat – Rossiya va Xitoy ta’siri asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Zero, Qozog‘iston mazkur ikki davlat bilan umumiy chegaralarga ega mamlakat hisoblansa, O‘zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarida esa bu ikki davlat yetakchilik qiladi.

5. Mustaqillik yillari tajribasidan ma’lumki, O‘zbekistonning ham ichki, ham tashqi siyosati sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lgan barcha respublikalar, xususan, chegaradosh qo‘shni mamlakatlar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan. Yangi O‘zbekiston sharoitida esa tashqi munosabatlar yangi sifat holatiga o‘tmoqda.

6. Xalq diplomatiyasi, chegara hududlarda sohalar kesimida forumlar tashkil etish va ular o‘rtasidagi mahalliy hamkorlikni rivojlantirish, ijodkorlar dekadalarini tashkil etish O‘zbekiston va Qozog‘iston davlatlararo aloqalarini rivojlantirishda istiqbolli hisoblanadi.

Mavzuning tahlili asosida quyidagi amaliy ahamiyatga molik **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada yuqori sifat bosqichiga olib chiqish yo'lida ikki davlatning transportga mas'ul hukumat idoralari tomonidan **“O‘zbekiston – Qozog‘iston transport-logistik tizimi”**ga asos solish va bunday tizimga butun mintaqa mamlakatlarining ham bosqichma-bosqich integratsiyasini ta'minlash **maqsadga muvofiq.**

2. Ikki davlat o'rtasidagi xalqaro hamjihatlikni madaniy sohada qo'llab-quvvatlash maqsadida tarixiylik va zamonaviylik tamoyili asosidagi ilmiy konsepsiyaga asoslangan **O‘zbekistonda Qozog‘iston san’at va madaniyati oyligi hamda Qozog‘istonda O‘zbekiston san’ati va madaniyati oyligi** xalqaro tadbirlarini muntazam o'tkazib borish zarur. Bunda ikki xalqning atoqli olim va ziyolilari ishtirokida o'zbek va qozoq madaniyati, tili, milliy an'analarining tarixi, umumiyligi va o'ziga xosligi va zamonaviy qiyofasining namoyon bo'lishi shakllarini san'at va adabiyotning turli janrlar maqsadga muvofiq. orqali ifoda etish **muhim.**

3. O‘zbekiston va Qozog‘iston o'rtasida fan va texnologiyalar sohalaridagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlash borasida ikki mamlakatning ta'lim va fan bo'yicha hukumat idoralari, shuningdek tegishli ilmiy markazlari, universitet va akademiyalari hamkorligida fanning turli tarmoqlariga oid **ilmiy grantlarni** amalga oshirish **maqsadga muvofiq;**

4. Davlatlararo aloqalarning istiqboli uchun mustahkam zaminlar yaratish va mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkiloti hamda Qozog‘iston Respublikasidagi yoshlar hayoti va muammolarini o'rganish uchun mas'ul tuzilmalari hamkorligida davriy faoliyat olib boruvchi **“O‘zbek-qozoq yoshlari xalqaro do'stlik forumi”**ni tashkil etish va navbatma-navbat ikki mamlakatning turli shahar va viloyatlarida o'tkazilishini ta'minlash **muhim.**

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc/03/30.12.2021/Ss/Tar.21.02 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

ТАШКЕНТСКИЙ ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

АБДУРАЗАКОВА КАМОЛАХОН ЮСУПОВНА

**РОЛЬ МЕЖГОСУДАРСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ
УЗБЕКИСТАНОМ И КАЗАХСТАНОМ В УКРЕПЛЕНИИ
РЕГИОНАЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА**

**23.00.04 – Политические проблемы международных отношений, глобального и
регионального развития**

АВТОРЕФЕРАТ
Диссертации доктора философии (PhD)
по политическим наукам

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2022.4.PhD/Ss364

Диссертация выполнена в Ташкентском химико-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Ташкентского государственного университета востоковедения (<https://tsuos.uz>) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Сирожов Ойбек Очилович

доктор политических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Убайдуллаева Саодат Фатхуллаевна

доктор политических наук, доцент

Хуррамов Мусурмон Келдиёрович

доктор философии (PhD) по политическим наукам

Ведущая организация:

**Национальный университета Узбекистана
им. Мирзо Улугбека**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2024 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/29.12.2022.Ss/Tar.21.02 по присуждению учёных степеней при Ташкентском государственном университете востоковедения (Адрес: 100047, г. Ташкент, улица Амира Темура, д. 20, тел.: 71) 233-45-21, факс: (998971)233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета востоковедения (зарегистрировано за № __). Адрес: 100047, г. Ташкент, улица Амира Темура, д. 20, тел.: (998971) 233-45-21.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2024 года.
(реестр протокола рассылки № __ от «__» _____ 2024 года.)

Б.Д.Сайфуллаев

председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор политических наук,
профессор.

Д.И.Мадаминава

учёный секретарь Научного
совета по присуждению учёных
степеней, доктор политических
наук, доцент.

Э.С.Султанова

председатель Научного семинара
при Научном совете по присуж-
дению учёных степеней, доктор
политических наук, профессор.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире происходит углубление таких глобальных процессов и проблем, как политическая напряженность, нехватка энергоресурсов, продовольственный кризис, которые имеют важное значение для будущего человечества. Интенсивность преобразований в процессе глобализации требует поиска оптимальных путей укрепления межгосударственных отношений и изучения в политическом отношении вопросов направления их на развитие стран. В настоящее время укрепление отношений между ведущими странами для развития регионального сотрудничества на мировой арене, эффективное использование имеющихся возможностей является многогранной и сложной задачей, которая, в свою очередь, в таких вопросах, как совершенствование механизмов развития межгосударственных отношений, являющейся важным направлением сотрудничества, опирается в наличие некоторых проблем, ожидающих своего решения.

Научные исследования, направленные на изучение развития межгосударственных отношений, проблем межгосударственного сотрудничества, а также исследование политико-философских проблем развития сотрудничества осуществляются, в частности, такими ведущими мировыми научными центрами и высшими учебными заведениями, как: Центр стратегических и международных исследований, Центр научных исследований Центральной Азии (США), Институт Центральной Азии (Франция), Центр европейских и азиатских исследований, Европейский центр политических исследований (Европейский Союз), Международный институт политических исследований (Япония), Российский институт стратегических исследований, Научно-информационный центр изучения глобальных и региональных проблем (Россия), Китайский центр исследований (Китай), Институт стратегических исследований при Президенте Республики Казахстан (Казахстан), Институт стратегических и межрегиональных исследований при Президенте Республики Узбекистан и Международный институт Центральной Азии (Узбекистан).

На сегодняшний день установление традиций добрососедства со странами региона является важным направлением нашей внешней политики, и в этом отношении накоплен значительный опыт. В частности, были подписаны Декларация о всеобъемлющем стратегическом партнерстве с Кыргызстаном (2023 г.), Декларация об углублении стратегического партнерства с Туркменистаном (2022 г.), Декларация о союзнических отношениях с Таджикистаном (2024 г.), Договор о союзнических отношениях с Казахстаном (2022 г.). Подобные инициативы нашей страны имеют большое значение в обеспечении мира и стабильности в регионе, развитии двустороннего сотрудничества.

В условиях проведения ускоренных реформ в обществе в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы выдвинута задача разработки стратегии развития регионального сотрудничества в Центральноазиатском

регионе. Это указывает на необходимость широкомасштабных научных исследований процессов сотрудничества в нашем регионе. Данная исследовательская работа также обусловлена актуальностью исследования стратегических и политических аспектов установления традиций добрососедства со странами региона, укрепления межгосударственных отношений Узбекистана и Казахстана, развития сотрудничества в процессе ускоренного осуществления реформ в современном обществе Узбекистана. Кроме того, данная диссертация в определенной степени служит для реализации задач, определённых в Договоре о союзнических отношениях между Узбекистаном и Казахстаном, подписанном 22 декабря 2022 года, и других нормативно-правовых документах.

